

Loyiha

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

"VORISLIK HUQUQI"
bo'yicha qisqa muddatli o'quv kursi
O'QUV DASTURI
(*malaka oshirish*)

Toshkent – 2025

I. O'QUV KURSINING MAZMUNI

1.1. Kirish

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5816сон Farmonida belgilangan talablar majmuiga mos keladi.

Ushbu kursning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-son qarorida belgilangan talablarga javob beradi.

1.2. Kursning maqsadi

"Vorislik huquqi" qisqa muddatli o'quv kursi tinglovchilarni huquqiy bilimlarini oshirishga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv kursining o'quv dasturi tinglovchilarni vorislik huquqi sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga zamin yaratadi.

1.3. Kursning vazifalari

Tingovchilarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko'nikmalarini rivojlantirish:

vorislik to'g'risidagi umumiy qoidalar;

vasiyat bo'yicha vorislik;

qonun bo'yicha vorislik;

merosni egallah;

meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish.

1.2. Tinglovchilar kontingenti

Notarius yordamchilari, notarius-stajyorlar, notariuslikka nomzodlar va barcha qiziquvchilar.

1.3. O'qitish shakli

O'quv mashg'ulotlari an'anaviy yoki masofaviy shaklda tashkil etilishi mumkin.

II. MAVZULAR REJASI

№	Mavzular nomi	Mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar			
		Ma'ruza	Seminar	Amaliy mashg'ulot	Jami
1-modul: Vorislik to'g'risidagi umumiy qoidalar					
I.	Vorislik tushunchasi va huquqiy ta'minoti. Meros	2	-	-	2

	tarkibi.			
2.	Meros ochilgan vaqt va joy. Merosxo'rlar.	-	2	- 2
2-modul: Vasiyat bo'yicha vorislik.				
3.	Vasiyatnama tushunasi va shakli. Vasiyatnomani bekor qilish, o'zgartirish va haqiqiy emas deb topish.	-	-	2 2
4.	Vasiyatnama bo'yicha operatsiyalar va vaziyat majburiyati.	-	2	- 2
3-modul: Qonun bo'yicha vorislik.				
5.	Qonun bo'yicha vorislik tushunchasi va Qonun bo'yicha merosxo'rlarning navbatni.	-		2 2
6.	Vorislikning o'ziga xos xususiyatlari.	2	-	- 2
4-modul: Merosni egallash.				
7.	Merosga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish tartibi va Merosdan voz kechish.	-	2	- 2
8.	Merosning taqsimlanishi va meros huquqining o'ziga xos xususiyatlari.	-	-	1 1
9.	Merosni qabul qilish bo'yicha xarajatlar.	-	-	1 1
5-modul: Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish.				
10.	Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar	2	-	- 2
11.	Meros mol-mulkni ro'yxatga olish	-	-	2 2
12.	Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar berish	-	-	2 2
Yakuniy sinov imtihoni				
J A M I: 6 6 12 24				

III. O'QUV KURSINING MAZMUNI

1-mavzu: Vorislik tushunchasi va huquqiy ta'minoti. Meros tarkibi.

Asosiy masalalar: Vorislik asoslari. Meros tarkibi. Umumiy birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulkni meros qilib olish. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni meros qilib olish.

2-mavzu: Meros ochilgan vaqt va joy. Merosxo'rlar.

Asosiy masalalar: Merosning ochilishi. Merosning ochilish joyi. Merosxo'rlar. Noloyiq merosxo'rlarni merosdan chetlatish.

3-mavzu: Vasiyatnama tushunasi va shakli. Vasiyatnomani bekor qilish, o'zgartirish va haqiqiy emas deb topish.

Asosiy masalalar: Umumiy qoidalar. Shartli vasiyatnama. Vorisdan keyingi vorislarni tayinlash. Mol-mulkning vasiyat qilinmagan qismini meros qilib olish. Vasiyatnomaning shakliga doir umumiy qoidalar. Notarial tasdiqlangan vasiyatnama. Notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar.

4-mavzu: Vasiyatnama bo'yicha operatsiyalar va vaziyat majburiyati.

Asosiy masalalar: Vasiyatnomani bekor qilish va o'zgartirish. Vasiyatnomaning sir saqlanishi. Vasiyatni talqin qilish. Vasiyatnomaning haqiqiy emasligi. Vasiyatnomani ijro etish. Vasiyat majburiyati. Majburiyat yuklash.

5-mavzu: Qonun bo'yicha vorislik tushunchasi va merosxo'rlarning navbati.

Asosiy masalalar: Umumiy qoidalar. Qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislar. Qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik. Qonun bo'yicha uchinchi navbatdagi vorislik. Qonun bo'yicha to'rtinchi navbatdagi vorislik. Qonun bo'yicha beshinchi navbatdagi vorislik.

6-mavzu: Vorislikning o'ziga xos xususiyatlari.

Asosiy masalalar: Meros transmissiyasi - vasiyat yoki qonun bo'yicha potensial merosxo'rning vafot etishi natijasida unga tegishli merosni qabul qilib olish huquqining uning merosxo'rlariga o'tishini ta'minlaydigan fuqarolik huquqining instituti. Meros ochilgan paytda vorislik huquqiga ega bo'lgan vasiyat yoki qonun bo'yicha merosxo'rning borligi. Vasiyat yoki qonun bo'yicha merosxo'r merosni qabul qilib olishga ulgurmasdan vafot etganligi sababli uning merosdagi ulushi taqdirini hal qilish zarurati paydo bo'lganligi. Vafot etgan merosxo'r uning merosxo'rlari bilan almashtirilishi mumkinligi.

7-mavzu: Merosga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish tartibi va merosdan voz kechish.

Asosiy masalalar: Umumiy qoidalar. Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish. Merosdan voz kechish huquqi. Merosdan voz kechish huquqining cheklanishi. Vasiyat majburiyatini qabul qilib olishdan voz kechish huquqi.

8-mavzu: Merosning taqsimlanishi va meros huquqining o'ziga xos xususiyatlari.

Asosiy masalalar: Merosning taqsimlanishi. Hozir bo'Imagan merosxo'rlarning huquqlari. Korxonaga vorislik. Ayrim merosxo'rlarning meros tarkibiga kirdigan mol-mulkka nisbatan imtiyozli huquqi. Meros ulushlarining ortishi. Meros hisobidan to'lanishi lozim bo'lgan xarajatlar. Kreditorlarning meros qoldiruvchining qarzlarini undirib olishi. Egasiz qolgan mol-mulk.

9-mavzu: Merosni qabul qilish bo'yicha xarajatlar.

Asosiy masalalar: Fuqarolik ishlari bo'yicha davlat boji. Notariuslar notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun to'lanadigan davlat boji miqdorlari. Soliy kodeksiga ko'ra umumiy asoslarda undiriladigan davlat boji. Fuqarolik ishlarini ko'rish bilan bog'liq chiqimlar. sud xarajatlarini to'laydigan taraf. Mol-mulkning umumiy qiymatiga kirmaydigan mol-mulklar.

10-mavzu: Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar.

Asosiy masalalar: Merosxo'rlarni meros ochilganligi haqida xabardor qilish. Merosni qabul qilish yoki undan voz kechish haqidagi arizalarni qabul qilish. Meros qoldiruvchining kreditorlaridan da'volarni qabul qilish. Meros mol-mulkni qo'riqlash. Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish to'g'risida topshiriq berish.

11-mavzu: Meros mol-mulkni ro'yxatga olish.

Asosiy masalalar: Meros mol-mulkni ro'yxatga olish va uni saqlash uchun topshirish. Meros mol-mulkni saqlaganlik uchun taqdirlash. Meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlarni to'xtatish. Meros mol-mulk hisobidan xarajatlarni to'lash.

12-mavzu: Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar berish.

Asosiy masalalar: Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar berish joyi va muddatlari. Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish tartibi. Qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berishning shartlari. Vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish shartlari. Mediator vazifasini bajarish.

IV. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

4.1. O'qitish texnologiyasi: Interfaol o'qitish texnologiyasi – tinglovchilarning o'quv mashg'ulotlarida o'zaro hamkorlik qilishlari hamda faol qayta aloqa shakllaridan foydalangan holda tegishli o'quv mashqlarini bajarish.

4.2. Ta'lism texnologiyasi va uslublarining turlari:

O'quv jarayonida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo'naltirilgan O'quv jarayonida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllari – muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash ("aqliy hujum" interfaol uslubini qo'llagan holda va h.k.), notariat sohasi bilan bog'liq hujjatlar loyihamalarini tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar qo'llaniladi.

O'qish jarayonida klinik ta'lism, nizoli jarayonlarning imitatsiyasi hamda sayyor mashg'ulotlar qo'llanilishi mumkin.

V. O'QUV KURSINING MODDIY-TEXNIK TA'MINOTI

5.1 O'quv dasturini o'zlashtirish va ta'lism jarayonlarini ta'minlashga mo'ljallangan o'quv va o'quv-metodik materiallar.

O'quv jarayonini tashkil etish:

O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta'lism hamda o'quv mashg'ulotlarining interfaol "aqliy hujumlar", "keys stadi", "jamoa bo'lib ishlash" hamda bilim va ko'nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O'quv materiallari:

ma'ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo'yicha o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezентatsiyalar va h.k.).

O'quv materiallari Axborot-resurs markazi va kafedralarda bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.

O'quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yoxud masofaviy topshiriqlar;

amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.k.).

O'quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta'minoti:

shaxsiy kompyuter – o'qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;

“ppt (pptx)”, “doc (docx)”, “xlsx”, “mp3” va boshqa h.k. formatdagi fayllar bilan ishlash uchun dasturiy ta’minotlar;
multimedia qurilmasi, ekran yoki smart-televizor.
O’quv materiallari Axborot-resurs markazida bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.